


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60110400 – Boshlang'ich ta'lim
bakalavriat ta'lim yo'nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent-2025



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2025-yil "___" _____ dagi ___ - sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy
ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatning tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatning obyektlari	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatning turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	9
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	10
	Bibliografik ma'lumotlar	11
	Kelishuv varog'i.....	12

1. Umumiy tavsifi:

60110400 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki ta'lim shakllarida amalga oshiriladi.

1.1 Qo'llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talablari 60110400 – Boshlang'ich ta'lim ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkiloti uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotlarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotisining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va ta'lim sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlari tasnifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

umumiy o'rta ta'lim maktablari, professional ta'lim tashkilotlarida boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi maqomida faoliyat olib borish;

ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat tashkilotlarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim tashkilotisini boshqarish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi, professional ta'lim tashkilotlari, oliy ta'limda laborant, kabinet mudiri sifatida faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatining obyektlari:

umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi idoralarda;

ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida;

mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlarida.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari

- *pedagogik;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

“60110400 – Boshlang'ich ta'lim” ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Pedagogik faoliyatida:

o'quv jarayonini rejalashtirish: DTS va milliy o'quv dasturining maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko'ra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish.

ta'lim samaradorligini ta'minlash: dars maqsadlariga ko'ra o'quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o'quvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, o'quvchilarning jamoaviy va loyixaviy ishlarini tashkil etish o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalaridan foydalanish, o'quvchilarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, o'quvchilarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga erishish.

o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish: ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini tahlil qilish, dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va tahlil qilish.

tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish: tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lim tashkilotiining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish,

ijtimoiy sog'lom muxitni yarata olish, o'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish.

xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash: O'quvchilar va ularning ota-onalari orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, o'quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratsa, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, o'quvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;

o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish: muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda tanlovlarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish: o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga maktab hayotiga jalb qilish, o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari (Yoshlar ittifoqi) bilan hamkorlik qilish bo'yicha professional faoliyat malakalarini egallagan bo'lishi kerak.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati:

boshlang'ich ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

boshlang'ich ta'lim fanlariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadbiq etish;

boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

boshlang'ich ta'limga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;

mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlarida ishlash;

boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va texnologiyasi, o'qitishning didaktik vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantiruvchi metod va texnologiyalarni bilish hamda amaliyotda qo'llay olish;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

raqamli savodxonlik, kibermadaniyat va internet xavfsizligi bo'yicha tushunchalarni shakllantirish;

akademik halollik tamoyillariga rioya qilish, plagiatga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish;

o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, o'z yurtining tarixiy merosi, qadriyatlari, buyuk ajdodlari va hozirgi taraqqiyot yo'lini chuqur anglashga yordam berish;

ommaviy axborot vositalarida tarqalayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish va baholashga o'rgatish;

axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan xavfsiz va ongli foydalanish madaniyatini shakllantirish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

kasbiy axloq etikasiga rioya qilish;

pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

kasbiy muammolar yechimini topish;

internet saytlarini yaratishda til me'yorlarini belgilash;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish;

ta'limda inkluzivlikni ta'minlash, nogironligi bo'lgan o'quvchilar bilan alohida yondashuv asosida ishlash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

Maktab ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni (PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, STEAM) joriy etishning me'yoriy-huquqiy asoslari, asosiy maqsadlarini bilish va o'quvchilarga yetkaza olish;

matematik savodxonlik, o'qish savodxonligi, tabiiy-ilmiy savodxonlik va kreativ fikrlash bo'yicha o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qay darajada qo'llay olishlari, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil qilish, egallagan kompetensiyalarini qay darajada rivojlanganligini xalqaro tajribalar va tahlillar asosida takomillashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

boshlang'ich ta'lim fanlariga oid asosiy qonuniyatlardan kasbiy faoliyatda samarali foydalanishi, matematik tahlil qilish va modellashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi, shuningdek, nazariy hamda amaliy tadqiqot usullarini qo'llay olish;

boshlang'ich ta'lim fanlari ona tili, savodxonlik, matematika, tabiiy fanlar, tarbiya va texnologiya ta'limi fanlarini o'qitishda zarur bo'lgan nazariy va metodik bilimlarga ega bo'lishi, o'quvchilarda asosiy ko'nikmalarni – o'qish, yozish, og'zaki nutq, mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish, axloqiy tarbiya va amaliy ko'nikma va zamonaviy pedagogik texnologiya, interaktiv usullarni samarali qo'llay olishi, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olib, bilimlarni oddiy, tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazib bera olish;

davlat tilining me'yor va qoidalariga rioya qilgan holda og'zaki va yozma tarzda fikr, g'oya, taklif, mulohaza va xulosalarni izchil, aniq, mantiqiy va asosli bayon eta olishi, shuningdek, ilmiy matnlarni tahlil qilish va ularni ifodalash;

kasbiy faoliyatiga daxldor hujjatlar va materiallarning mazmunini xorijiy tillarning birida tushunishga qodir bo'lishi, shuningdek, ushbu tilni kasbiy ehtiyojlarini ta'minlash darajasida samarali qo'llay olish;

olingan professional tajribani tanqidiy tahlil qilish, o'zini o'zi takomillashtirish, malakasini oshirish va kasbiy faoliyatining yo'nalishi va xususiyatlarini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lish;

ish joyidagi ehtimoliy xavf-xatarlarni yaxshi anglashi, mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarni oldini olish qobiliyatiga ega bo'lishi, shuningdek, texnologiya darslarida xavfsizlik texnikasini ta'minlash va laboratoriya tajribalarini xavf-xatarsiz amalga oshirish;

gigiyena, mehnat xavfsizligi va tashqi ta'sirlardan himoyalash qoidalariga rioya qilgan holda, sog'lom hayot tarzi ko'nikmalarini shakllantirish;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilishi, o'z faoliyatida mustaqil ravishda asosli qarorlar qabul qila olishi, shuningdek, media savodxonligi va global kompyuter tarmoqlari bilan ishlash;

ijtimoiy va kasbiy vazifalarni bajarishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarining asosiy qoidalaridan hamda usullaridan samarali ravishda foydalanish qobiliyatiga ega bo'lish;

shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va obyektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish;

ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, ilmiy bilish sohasida yutuqlarga erishish prinsiplarini tushunishi va tanqidiy fikrlash metodologiyasini o'zlashtirish;

o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish va uni ta'lim amaliyotida qo'llash;

ta'lim jarayoni subyektlarining hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo munosabatlarni tashkil etish usullarini o'zlashtirish;

kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo integratsiyani amalga oshirish, shu bilan birga, nazariya va amaliyotning uyg'unligini, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash;

inklyuziv ta'limda qadriyatga asoslangan munosabatni shakllantirish;

uzoq muddatli davolanishga ehtiyoj sezadigan o'quvchilar bilan ishlashda (gospital pedagogikasi) texnologiyalarni o'zlashtirgan bo'lish;

ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga

moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik hamda mobillikka yo'naltirilgan o'qitish;

texnologik jarayonlarga doir texnik reglamentlar, texnologik va texnik me'yorlar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda samarali foydalanish kasbiy kompetensiyasiga ega bo'lishi.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:

Malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus va professional ta'lim o'quv jarayonlari, mehribonlik uylari, ijtimoiy institutlar faoliyati bilan uyg'unlashtirish.

Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti 5-8-semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kuni nazariy va amaliy ta'lim, 2 kuni umumiy va o'rta ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyotlari
2. Pedagogik amaliyot
3. Bitiruv oldi amaliyoti

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Umumiy majburiy fanlar*			
1.01.	UmPsix 11210	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
1.02.	O'YET 1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.03.	FAL 1204	Falsafa	120	4	2
1.04.	MAM 1105	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	1
1.05.	Ao't.O'TSQ1106	Amaliy o'zbek (rus) tili. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi	180	6	1
1.06.	OTil 1123420	Ona tili	600	20	1,2,3,4
1.07.	BMKN 11216	Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi	480	16	1,2,3
1.08.	BTPED 11210	Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi	300	10	1,2
1.01.	DIN 1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.02.	BSTTar 1305	Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani	150	5	3
1.05.	BSMO'M 145613	Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi	390	13	4,5,6
1.06.	BSTTNM 13409	Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi nazariyasi va metodikasi	270	9	3,4
1.01.	BSOTO'M 156712	Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi	360	12	5,6,7
1.03.	XBDAO'TE 1604	Xalqaro baholash dasturlar asosida o'qitishni tashkil etish	120	4	6
1.04.	BSTFNM 15608	Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi	240	8	5,6
1.01.	InkT.GP 1805	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	150	5	8
1.02.	BAd 1805	Bolalar adabiyoti	150	5	8
1.03.	HO'Tex 1704	Husnixat o'qitish texnologiyasi	120	4	7
1.04.	BTENSE 1704	Boshlang'ich sinflarda ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari	120	4	7
1.06.	BTIUO'M 1804	Boshlang'ich ta'limda informatika va uni o'qitish metodikasi	120	4	8
1.07.	PedM 1704	Pedagogik mahorat	120	4	7
		Jami:	4680	156	
2.00.		Tanlov fanlar	1020	34	3-8
	Kvalifikatsiya	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi.			
		Malakaviy amaliyot	1320	44	(3-8)
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		JAMI	7200	240	

*Mazkur ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining tanlov fanlar qismiga "Kasbiy sohada xorijiy tillar (ECTS)" fani majburiy tarzda kiritiladi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 372.3

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, kasb, uqib-o'rganish natijalari, o'quv davri, maktab amaliyoti, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, pedagogik amaliyot, tashkiliy-boshqaruv, tarbiyaviy ish faoliyati, mutaxassislik va ixtisoslik, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim tashkilotisi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, innovatsiya, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi, majburiy fanlar, tanlov fanlari, 4+2 amaliyot, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi.

Kelishuv varag'i

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Rektor v.v.b. Z.Raxmanov

2025-yil « »



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor v.v.b. A.Xoliqov

2025-yil « »



M.O'.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Rektor v.v.b. G.Muxamedov

2025-yil « »



M.O'.

O'zbekiston Respublikasi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
huzuridagi

Respublika ta'lim markazi

Direktor v.v.b. D.Norboyeva

2025-yil « »



M.O'.

Guliston davlat pedagogika instituti

Rektor v.v.b. J.Karshibayev

2025-yil « »



M.O'.